



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI BAHOLASH VA RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası kata o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif ijodiy faoliyat tushunchasini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilgan holda amaldagi baholash va rag'batlantirish mexanizmlarini o'rganadi. Tadqiqot davomida mavjud tizimdagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. IMRAD strukturasiga asoslangan holda maqolada muammo bayoni, metodologik yondashuvlar, tadqiqot natijalari va ularning amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Natijada bo'lajak pedagoglarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish va ularning kasbiy faoliyatini samarali baholash bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchilar, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, baholash tizimi, rag'batlantirish, pedagogika, boshlang'ich ta'lim, IMRAD, innovatsion yondashuv.

Abstract: This article addresses the issues of improving the system of assessing and encouraging the creative activity of prospective primary school teachers. The author, analyzing the concept of "creative activity" from a pedagogical perspective, examines the current mechanisms of assessment and encouragement. The study identifies shortcomings in the existing system and develops proposals and recommendations aimed at eliminating them. Based on the IMRAD structure, the article presents the problem statement, methodological approaches, research results, and their practical significance. As a result, the necessity of developing clear criteria for assessing the professional activities of future teachers and guiding them toward innovative thinking is substantiated.

Key words: prospective teachers, creative activity, creativity, assessment system, encouragement, pedagogy, primary education, IMRAD, innovative approach.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы совершенствования системы оценки и стимулирования творческой деятельности будущих учителей начальных классов. Автор, рассматривая понятие "творческая деятельность" с педагогической точки зрения, анализирует действующие механизмы оценки и стимулирования. В ходе исследования выявлены недостатки существующей системы и разработаны предложения и рекомендации, направленные на их устранение. На основе структуры IMRAD в статье представлены постановка проблемы, методологические подходы, результаты исследования и их практическая значимость. В итоге обоснована необходимость разработки четких критериев оценки профессиональной деятельности будущих педагогов и ориентирования их на инновационное мышление.

Ключевые слова: будущие учителя, творческая деятельность, креативность, система оценки, стимулирование, педагогика, начальное образование, IMRAD, инновационный подход.

KIRISH

Ijodiy faoliyat zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchilarning nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar o'qituvchilari o'quv jarayonining ilk bosqichida ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, uni samarali baholash hamda rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish bugungi ta'limning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Ijodkorlik – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, yangi va noyob g'oyalar, yondashuvlar yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning ijodiy yondashuvi o'quvchilarning bilim olish sifatini oshiradi, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga,



ijodiy faoliyatni baholash va rag'batlantirish tizimi o'qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqarishda hamda uni davom ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Amaldagi ta'lim tizimlarida ijodiy faoliyatni baholash usullari ko'pincha an'anaviy baholash tizimlariga asoslangan bo'lib, ular o'qituvchilarning ijodiy yondashuvlarini to'liq aks ettira olmaydi. Natijada ko'plab bo'lajak o'qituvchilar o'z ijodkorligini to'liq namoyon eta olmaydi yoki yetarlicha rag'batlantirilmaydi. Bu holat esa ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda ular tomonidan yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishni rag'batlantirish imkonini beradi. Ushbu maqola doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirishning amaliy yo'llari hamda metodlari o'rganiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun samarali baholash mexanizmlarini aniqlash va ularni taklif etishdir. Shuningdek, maqolada mavjud baholash tizimlarining zaif tomonlari tahlil qilinib, ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalarini chuqur o'rganish maqsadida aralash metodologiya (mixed methods) qo'llanildi. Aralash metodologiya sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlarni uyg'unlashtirib, tadqiqotning har tomonlama ishonchililigini hamda natijalarning aniqroq tahlil qilinishini ta'minlaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu bosqichda pedagogika va ijodiy faoliyatni baholash bo'yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda ta'lim standartlari batafsil o'rganildi. Shu yo'l bilan mavjud baholash tizimlarining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, ijodkorlikni rag'batlantirishda qo'llaniladigan metodlar aniqlab olindi. Mazkur bosqich tadqiqotning empirik qismiga asos bo'lib xizmat qildi va yangi baholash tizimlarini taklif etishda ilmiy asos yaratdi. So'rovnoma miqdoriy ma'lumotlar yig'ish uchun qo'llanildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mo'ljallangan maxsus tuzilgan so'rovnoma orqali ularning ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish haqidagi fikr-mulohazalari, mavjud tizimlarga bo'lgan munosabati hamda takliflari o'rganildi. So'rovnoma savollari yopiq va ochiq turda bo'lib, respondentlarning fikrlarini aniqroq tushunishga yordam berdi.

So'rovnomada 5 ballik Likert shkalasi qo'llanilib, natijalar statistik dastur yordamida tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida ko'p sonli respondentlar fikri umimlashtirilib, tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Intervyu sifat metodlari qatoriga kirib, tadqiqotga chuqurlik va aniqlik kiritdi. Metodistlar, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda ta'lim sohasidagi mutaxassislar bilan olib borilgan yarim strukturali intervyular orqali baholash va rag'batlantirish tizimining amaliy jihatlari, duch kelinayotgan qiyinchiliklar va takliflar batafsil yoritildi. Intervyu savollari oldindan tayyorlanib, suhbat davomida qo'shimcha savollar bilan to'ldirildi. Bu esa ma'lumotlarni yanada boyitdi. Olingan ma'lumotlar mavzuga oid kategoriyalar asosida kodlashtirilib, mazmuniy tahlil qilindi. Kuzatuvlar ta'lim jarayonida baholash va rag'batlantirish tizimining real ishlashini baholash imkonini berdi. Tadqiqotchi sinflarda, pedagogik seminar va treninglarda kuzatuvlar olib bordi. Kuzatuvlar davomida o'qituvchilarning ijodiy yondashuvi qanday rag'batlantirilayotgani, baholash mezonlari va rag'batlantirish usullarining amaliy qo'llanilishi diqqat bilan qayd etildi. Kuzatuvlar uchun standartlashtirilgan monitoring varaqalari ishlab chiqilib, muayyan mezonlar bo'yicha baholandi. Ushbu usul tadqiqotga obyektivlik va amaliy ahamiyat bag'ishladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda jami 50 nafar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qatnashdi, ular respublikaning turli hududlaridagi ta'lim muassasalaridan tanlab olindi. Ishtirokchilar yosh, gender va ta'lim tajribasi bo'yicha turli guruhlarga ajratildi. Shuningdek, 10 nafar metodist va tajribali o'qituvchi bilan chuqur intervyular o'tkazildi. Ushbu namuna tadqiqot natijalarining ishonchililigini oshirishga yordam berdi. Tadqiqotda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan, ilmiy jihatdan tasdiqlangan bir nechta vositalar qo'llanildi. Har bir vosita tadqiqot maqsadiga mos ravishda tuzildi va ekspertlar tomonidan sinovdan o'tkazildi.

1. **So'rovnoma:** So'rovnoma bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimiga bo'lgan munosabatini o'rganish uchun tuzildi. So'rovnoma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda respondentlarning demografik ma'lumotlari (yoshi, jinsi, o'qituvchilik tajribasi) so'raldi. Ikkinchi qismda esa ijodiy faoliyatni baholash va rag'batlantirish bo'yicha 20 ta yopiq savol berildi. Bu savollar 5 ballik Likert shkalasi asosida (1 – to'liq rozi emasman, 5 – to'liq roziman) tuzildi. So'rovnoma savollari pedagogik adabiyotlar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlardan (Smith, 2020; Johnson & Lee, 2022)



moslashtirildi. So'rovnoma ishonchliligini aniqlash uchun Cronbach alfa koeffitsienti hisoblandi va u 0,87 ni tashkil etdi, bu yuqori ishonchlilikni ko'rsatadi.

2. **Yarim strukturali intervyu:** Intervyu shakli tadqiqot mavzusining murakkab jihatlarini aniqlash uchun tanlandi. Intervyu savollari oldindan belgilangan bo'lib, lekin suhbat davomida yangi muhim jihatlar yuzaga chiqqanda qo'shimcha savollar berildi. Intervyu savollari asosiy mavzular bo'yicha tuzildi: baholash tizimining samaradorligi, rag'batlantirish usullari, duch kelinayotgan qiyinchiliklar va takliflar. Har bir intervyu o'rtacha 30-40 daqiqa davom etdi va ovoz yozuvchi qurilma yordamida yozib olindi. Keyinchalik intervyu matnlari transkript qilindi va mazmuniy tahlil uchun tayyorlandi.
3. **Kuzatuv varaqalari:** Kuzatuvlar uchun maxsus monitoring varaqalari ishlab chiqildi. Bu varaqalarda baholash va rag'batlantirish jarayonining asosiy komponentlari (ijtimoiy-motivatsion muhit, baholash mezonlari, rag'batlantirish shakllari) uchun aniq mezonlar va indikatorlar belgilandi. Kuzatuvlar sinflar, metodik seminarlar va o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar davomida o'tkazildi. Har bir kuzatuvda tizimning kuchli va zaif tomonlari qayd etildi. Ushbu vositalarning kombinatsiyasi tadqiqotning ishonchliligini va natijalarining asosli bo'lishini ta'minladi. So'rovnoma yordamida katta respondentlar guruhi haqida umumiy fikrlar olindi, intervyular orqali esa muhim tafsilotlar va nuanslar yoritildi, kuzatuvlar esa amaliy jarayonlarni to'g'ri baholashga imkon berdi. Ushbu bo'limda tadqiqotda yig'ilgan ma'lumotlarning asosiy natijalari taqdim etiladi. So'rovnoma, intervyu va kuzatuv natijalari tahlil qilinib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimining hozirgi holati va muammolari ochib berildi.
1. **So'rovnoma natijalari:** So'rovnomaga javob bergan 50 nafar bo'lajak o'qituvchilarning 78%i mavjud baholash tizimini to'liq samarali deb hisoblamaydi. Respondentlarning 65%i ijodiy faoliyat uchun rag'batlantirish mexanizmlari yetarli emasligini ta'kidladi. Eng ko'p uchragan muammo – baholash mezonlarining aniq emasligi va ijodkorlikni baholashda subyektivlikning yuqoriligi (72%). Respondentlarning faqat 30%i baholash tizimida innovatsion yondashuvlar mavjudligini ta'kidladi.
2. **Intervyu natijalari:** Mutaxassislar va tajribali o'qituvchilar ijodiy faoliyatni baholashda quyidagi muammolarni qayd etdi:
 - baholash mezonlari aniq emasligi va standartlashtirilmaganligi;
 - rag'batlantirish usullarining kamligi, ko'p hollarda moddiy rag'batlantirishga tayanish;
 - ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish uchun professional rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi.Bundan tashqari, intervyu ishtirokchilari samarali baholash tizimlari ishlab chiqish uchun o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish va doimiy treninglar zarurligini ta'kidladi.
3. **Kuzatuv natijalari:** Kuzatuvlar davomida o'qituvchilarning ijodiy yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash tizimining amalda yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi. Ko'plab sinflarda baholash asosan an'anaviy testlar va yozma ishlar asosida olib borilmoqda, ijodiy faoliyatni baholash uchun maxsus mezonlar qo'llanilmayapti. Rag'batlantirish ko'pincha so'nggi natijalar yoki yutuqlarga bog'liq bo'lib, jarayon davomida ijodkorlikka e'tibor kam. Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimining mavjud shakllarida sezilarli kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Mavjud tizimlar an'anaviy bo'lib, ko'pincha ijodkorlikni to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, samarali baholash va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati dolzarbdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimi hozirgi kunda bir qator muammolarga duch kelmoqda. So'rovnoma va intervyular natijalari, shuningdek, kuzatuvlar mavjud baholash mexanizmlarining samaradorligi pastligini va ijodkorlikni to'liq aks ettirmasligini ko'rsatdi. Bu holat ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda, chunki baholash mezonlarining aniq emasligi va rag'batlantirish tizimining yetarlicha shakllanmaganligi o'qituvchilarning motivatsiyasini pasaytiradi.

Natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, ular ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda samarali baholash va motivatsiya tizimlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, intervyu ishtirokchilari tomonidan qayd etilganidek, o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish va doimiy professional rivojlanishning yo'qligi ijodiy salohiyatni to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuzatuvlar natijalari ko'rsatganidek, an'anaviy baholash usullari ijodiy faoliyatni baholash uchun yetarli emas va yangi, innovatsion metodlarni joriy etish zarur. Rag'batlantirish tizimlari esa faqat natijaviy yutuqlarga



e'tibor qaratib, jarayon davomida yuzaga keladigan ijodiy tashabbuslarni e'tiborsiz qoldirmoqda. Shu sababli, tadqiqot natijalari bo'yicha ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni baholash va rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Ularga quyidagilar kiradi: baholash mezonlarini aniq va standartlashtirilgan qilish, ijodkorlikni baholash uchun maxsus indikatorlar joriy etish; rag'batlantirish tizimlarini kengaytirish va jarayon davomida ijodiy tashabbuslarni ham rag'batlantirish; o'qituvchilar uchun muntazam professional rivojlanish va tajriba almashish platformalarini yaratish; innovatsion baholash usullarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Ushbu tavsiyalar ijodiy faoliyatni rivojlantirish va baholashda tizimli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonova, N. A. (2025). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko'nikmalarning roli. *Inter Education & Global Study*, 1(1), 15-21.
2. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva, G. K. (2023). Inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni. *Qo'qon Universiteti Xabarnomasi*, 1(1), 788-789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198-201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
4. Abduraxmonova, N. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati. *Science and Innovation*, 1(B8), 2114-2121.
5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). Boshlang'ich ta'limda chet el o'quvchilarini baholash mezonlari va samarali taqdirlash. *Qo'qon Universiteti Xabarnomasi*, 783-785.
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.
7. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 83-87.
8. Abduraxmonova, Nigoraxon. (2024). Ijodiy faoliyatini takomillashtirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual-shaxsiy sifatleri. *Университетская исследовательская база*, 55-58.
9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *Innovative Achievements in Science*, 11-137.
10. Kalendarova, Z. K. (2021). Primary education – the foundation of general secondary and higher education. *Theoretical & Applied Science* (Учредители: Теоретическая и прикладная наука), 6, 332-350.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.